



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA “YASHIL” IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2025-yil 21-dekabr, № 268 (9163)

Yakshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni
telefoningiz orqali skaner qiling.



O'ZBEKISTON VA YAPONIYA:

STRATEGIK SHERIKLIKNING YANGI BOSQICHI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Yaponiya Bosh vaziri Sanae Takaichining taklifiga binoan
18 – 20-dekabr kunlari rasmiy tashrif bilan ushbu mamlakatda bo'ldi.



Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev 20-dekabr kuni Tokioda “Markaziy Osiyo + Yaponiya” muloqotining birinchi sammitida ishtirok etdi.

Yaponiya Bosh vaziri Sanae Takaichi raisligida o'tgan tadbirda Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev, Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov, Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon

va Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov ham qatnashdi.

Kun tartibiga muvofiq, Markaziy Osiyo davlatlari va Yaponiya o'rtasida “yashil” iqtisodiyot va barqaror rivojlanish, o'zaro bog'liqlik hamda mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash, inson resurslarini rivojlantirish kabi ustuvor sohalarida o'zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirish istiqbollari muhokama qilindi.

Davlatimiz rahbari o'z nutqida bundan yigirma yil muqaddam aynan Kunchiqar yurt ilk bor “Markaziy Osiyo +” muloqotining tashabbuskori bo'lganini qayd etdi. Buyuk Ipak yo'li davridan rivojlana boshlagan yaqin savdo va madaniy aloqalar, o'xshash an'ana va urf-odatlar, ma'naviy, madaniy va oilaviy qadriyatlar Markaziy Osiyo



va Yaponiya o'rtasida ko'p qirrali hamkorlikni rivojlantirish uchun mustahkam asos hisoblanadi.

– Biz Markaziy Osiyo mamlakatlari mustaqillikka erishganidan keyingi davr mobaynida Yaponiya ishonchli hamkorimiz bo'lib kelayotganini, mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, infratuzilma, sanoat va energetika bazasini modernizatsiya qilish, fan

va ta'lim hamda kadrlar salohiyatini mustahkamlashga salmoqli hissa qo'shayotganini yuksak qadrlaymiz. Shu sababli Markaziy Osiyo davlatlari Yaponiyaning mintaqa hayotida yanada keng va faol ishtirok etishidan manfaatdor, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Mintaqa tabiiy resurslarga boyligi, jahondagi transport, savdo va energetika yo'nalishlari chorrahasida

joylashgani, Markaziy Osiyo mamlakatlari iqtisodiyotining jadal sur'atlarda o'sayotgani hamda bu yerda kechayotgan yaqinlashish va integratsiyaning faol jarayonlari Yaponiya bilan kooperatsiya uchun qulay sharoit yaratmoqda.



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot
xizmati suratlari.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING “MARKAZIY OSIYO + YAPONIYA” BIRINCHI SAMMITIDAGI NUTQI

Hurmatli Bosh vazir xonim oliyalari!

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

Yaponiya Bosh vaziri Takaichi xonim oliyalarga “Markaziy Osiyo + Yaponiya” birinchi sammiti yuksak darajada tashkil etilgani, go'zal va jo'shqin Tokioda ko'rsatilayotgan samimiy mehmondo'stlik uchun bildirilayotgan chuqur minnatdorlik so'zlariga qo'shilaman.

Ta'kidlashni istardimki, bundan 20 yil muqaddam aynan Kunchiqar yurt ilk bor “Markaziy Osiyo +” muloqotining tashabbuskori bo'lgan edi. Ushbu qaror strategik jihatdan naqadar muhim va to'g'ri bo'lganini vaqtning o'zi ko'rsatmoqda.

Ushbu sammitimiz, hech shubhasiz, tarixiy ahamiyatga ega va hamkorligimizda yangi sahifa ochmoqda.

Bizning Yaponiya bilan yaqin savdo va madaniy aloqalarimiz Buyuk Ipak yo'li davridan rivojlana boshlaganini qayd etishni istar edim. Yaponiyaning qadimiy poytaxti Nara shahri, Siz tug'ilgan maskan, hurmatli Bosh vazir xonim, ushbu yo'ldagi eng muhim markazlardan biri bo'lgan.

Bizni o'xshash an'ana va urf-odatlar, ma'naviy, madaniy va oilaviy qadriyatlar ham yaqinlashtirib turadi.

Bularning barchasi Markaziy Osiyo va Yaponiya o'rtasida ko'p qirrali hamkorlikni rivojlantirish uchun mustahkam asos hisoblanadi.

Hurmatli Takaichi xonim!

Biz Markaziy Osiyo mamlakatlari mustaqillikka erishganidan keyingi davr mobaynida Yaponiya ishonchli hamkorimiz bo'lib kelayotganini, mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, infratuzilma, sanoat va energetika bazasini modernizatsiya qilish, fan va ta'lim hamda kadrlar salohiyatini mustahkamlashga salmoqli hissa qo'shayotganini yuksak qadrlaymiz.

Shu sababli Markaziy Osiyo davlatlari Yaponiyaning mintaqa hayotida yanada keng va faol ishtirok etishidan manfaatdor. Va bu borada bizda taqdim etadigan takliflar bor.

Mintaqamiz tabiiy resurslarga boy, jahondagi transport, savdo va energetika yo'nalishlari chorrahasida joylashgan. Markaziy Osiyo mamlakatlari iqtisodiyotining o'sishi 5-6 foizni tashkil etmoqda va bu sur'at yaqin yillarda ham saqlanib qoladi.

Bugungi kunda mintaqada kechayotgan yaqinlashish va integratsiyaning faol jarayonlari Yaponiya bilan kooperatsiya uchun qulay sharoit yaratmoqda.

Hurmatli Bosh vazir xonim, Markaziy Osiyo bilan

strategik munosabatlarni rivojlantirish borasidagi qat'iy intilishingiz uchun yana bir bor minnatdorlik bildiraman.

Ishonchim komil, birgalikdagi sa'y-harakatlarimiz bilan yangi marralarga erishamiz. Donishmand yapon xalqi aytganidek, “agar kuchlar birlashtirilsa, tog'larni ham o'z o'rnidan siljitish mumkin”.

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

Bugun mamlakatlarimiz o'rtasida sheriklikni rivojlantirish bo'yicha ilgari surilgan muhim tashabbuslarni to'liq qo'llab-quvvatlayman.

Hamkorligimizni strategik muhim yo'nalishlarda mustahkamlashga qaratilgan Tokio deklaratsiyasi qabul qilinganini olqishlayman.

O'z navbatida, “Markaziy Osiyo + Yaponiya” formatida o'zaro hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha qarashlarimizni bayon etishni istar edim.

Birinchidan, sammitlarni davlat rahbarlari darajasida har ikki yilda bir marta o'tkazishni taklif etamiz. Bu hamkorligimizga qo'shimcha kuchli turki bag'ishlashga xizmat qiladi. Navbatdagi bunday uchrashuvlarimizdan birini O'zbekistonda qabul qilishga tayyormiz.

Yaponiyaning adliya va huquq sohasida hamkorlik bo'yicha yangi doimiy mexanizmini yaratish va kelgusi yili Tokioda adliya vazirlarining birinchi uchrashuvini tashkil etish borasidagi tashabbusini qo'llab-quvvatlaymiz.

Ikkinchidan, “Markaziy Osiyo – Yaponiya 2040” hamkorlik strategiyasini ishlab chiqish tarafdorimiz. Ushbu hujjatga mintaq mamlakatlarining barqaror rivojlanishiga ko'maklashish va ularni global iqtisodiy jarayonlarga chuqur integratsiya qilish bo'yicha aniq dastur va loyihalarni kiritish mumkin bo'ladi.

Yangi g'oya va takliflarni ishlab chiqish, hamkorlikning keng ko'lamli kun tartibini shakllantirish uchun mamlakatlarimizning yetakchi tahlil tuzilmalari ishtirokida Ekspertlar forumini ta'sis etish muhimdir. Muzokaralar uchun platforma taqdim etish va forumning ilk majlisini kelgusi yili Toshkentda chaqirishga tayyormiz.

Uchinchidan, Yaponiya moliya institutlarining Markaziy Osiyoda savdo-iqtisodiy va investitsiya loyihalarini qo'llab-quvvatlashni kengaytirishini olqishlaymiz.

Ishonaman: Markaziy Osiyoning boy tabiiy va kadrlar resurslarini Yaponiyaning sanoat va texnologik salohiyati bilan birlashtirib, bir-birimizni to'ldirish va kuchaytirish bo'yicha samaraga erisha olamiz.

Shu munosabat bilan Markaziy Osiyoning infratuzilmalari va sanoatini rivojlantirish investitsiya jam'armasini ta'sis etishni taklif qilamiz. Uning bazasida mintaqada yirik infratuzilma loyihalarini amalga oshirish uchun Yaponiya investitsiyalari, texnologiyalari, muhandislik standartlari va ekspertizasini jalb etishga qaratilgan “Sifatli infratuzilma” bo'yicha dasturi ishga tushirish mumkin.

Shuningdek, Yaponiya texnoparklarining Markaziy Osiyo tarmog'i – sanoat kooperatsiyasi, mahalliyalashtirish va texnologiyalar transferi mintaqaviy platformasini yaratishni taklif etamiz. Texnoparklar tarmog'ini mintaqadagi har bir mamlakatning xomashyo va sanoat sohasidagi imkoniyatlaridan kelib chiqib taqsimlash mumkin.

To'rtinchidan, bugun raqamli transformatsiya iqtisodiy o'sish va barqarorlikning hal qiluvchi omiliga aylanib bormoqda.

Yaponiya kompaniyalari raqamli iqtisodiyot segmentlari – sanoatni avtomatlashtirish, robototexnika, boshqaruvning intellektual tizimlari, yangi avlod bulutli va telekommunikatsiya platformalari sohalarida jahonda yetakchidir.

“Markaziy Osiyo – Yaponiya” raqamli xabi – raqamli yechimlar, sun'iy intellekt, “buyumlar interneti”, kiberxavfsizlik va innovatsion iqtisodiyot sohalarida ko'p tomonlama hamkorlik platformasini yaratishni taklif etamiz.

Beshinchidan, Yaponiya zamonaviy va ishonchli transport infratuzilmasini yaratishda katta tajribaga ega bo'lib, mintaqada tranzit va logistika tarmog'ini rivojlantirishda muhim sheriklardan biriga aylanishi mumkin.

Biz tezyurar poyezdlar va avtomobil yo'llarini barpo etish, transport yo'laklarini raqamlashtirish, aeroportlar va logistika markazlarini qurish loyihalariga Yaponiya investitsiyalari, texnologiyalari va ekspertlarining ko'magini jalb etishdan manfaatdormiz.

Bu borada Toshkent yangi xalqaro aeroportini qurishda “Sojitz LLC” kompaniyasi bilan muvaffaqiyatli hamkorligimizni ta'kidlashni istar edim.

Oldinchidan, Yaponiya zararli gazlarni atmosferaga chiqarishni to'liq bartaraf etishga erishish borasidagi yuzifalarni amalga oshirishda jahondagi yetakchi davlatdir.

Biz O'zbekistonda zaharli gazlarni chiqarishni 2035-yilga borib 50 foizga qisqartirish, 2030-yilgacha umumiy generatsiyada “yashil” energiya ulushini 54 foizga yetkazishni maqsad qilib qo'yganimiz.

Energetik o'tish va “yashil” energetikani rivojlantirish bo'yicha samarali issiqlik stansiyalari, quyosh va shamol energiya quirimlarini barpo etish, kogeneratsiya, yo'qotishlarni qisqartirish, zararli gazlarni ushlab qolish va foydalanish texnologiyalarini joriy etish kabi aniq loyihalarni birgalikda ishlab chiqishni taklif etamiz.

Toshkentda Qayta tiklanadigan energetika sohasida mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha mintaqaviy markazni tashkil etish taklifini ilgari suramiz.

Yettinchidan, mamlakatlarimiz tomonidan qabul qilingan Markaziy Osiyo uchun “Yashil kun tartibi” mintaqaviy dasturini amalga oshirishda o'zaro hamkorlikni chuqurlashtirishni muhim deb hisoblaymiz. Ushbu dastur Yaponiyaning “Yashil transformatsiya” tashabbusi bilan uyg'undir.

Mintaqada havo sifatini yaxshilash bo'yicha atmosferaga chiqarilayotgan gazlarni monitoring qilish, filtrlash va kamaytirish, aholi uchun yanada barqaror va xavfsiz ekologik muhitni yaratish uchun ilg'or yechimlarni qo'llashga qaratilgan qo'shma dasturi ishga tushirish, Iqlim o'zgarishi bilan kurashni va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida, Orolbo'yi ekologik muammolarini hal qilishga ko'maklashish va suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etish bo'yicha loyihalarni qamrab oladigan qo'shma harakatlar dasturini qabul qilish, Muloqot doirasida atrof-muhitni muhofaza qilish idoralari rahbarlarining yangi shakldagi uchrashuvlarini tashkil etishni taklif etamiz.

Sakkizinchidan, Yaponiyaning seysmik xavfsizlik sohasidagi ulkan tajribasini hisobga olib, Seysmik barqarorlikni baholash va oshirish bo'yicha qo'shma dasturi ishga tushirish tarafdorimiz.

Maqsad – yapon ekspertlarini jalb etgan holda Markaziy Osiyoning yirik shaharlarini kompleks seysmik tekshiruvdan o'tkazish, seysmik barqarorlikni oshirish yuzasidan “yo'l xaritalari”ni ishlab chiqish, Yaponiya modeli asosida oldindan ogohlantirish tizimlarini ishga tushirishdir.

Toshkent shahrida Yaponiya standartlari va protokollari bo'yicha muhandislar, arxitektorlar, qutqaruv xizmatlarini tayyorlash uchun Mintaqaviy malaka oshirish markazini ochishni taklif etamiz.

To'qqizinchidan, Yaponiyaning ta'lim va malakali kadrlar tayyorlash sohasidagi ko'magini yuksak baholaymiz. Ta'lim, ilmiy va akademik almashuvlarni bundan buyon ham kengaytiramiz va qo'llab-quvvatlaymiz.

O'zbekistonda kelgusi yili “Markaziy Osiyo +

Yaponiya” formatida ta'lim vazirlarining birinchi yig'ilishini, shuningdek, mintaqadagi yetakchi universitetlar rektorlarining ilk forumini o'tkazishni taklif etamiz.

Yoshlar hamjamiyatlari o'rtasida uzoq muddatli aloqalarni shakllantirish, ularning ijodiy, texnologik va professional salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan Yoshlarni rivojlantirish mintaqaviy tarmoq dasturlarini qabul qilish tarafdorimiz.

Madaniyat, san'at va turizm festivallarini doimiy o'tkazib borish xalqlarimiz o'rtasida do'stona aloqalarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Osakadagi “EKSPLO” Butunjahon ko'rgazmasida O'zbekiston pavilyoni Oltn mukofotga sazovor bo'lganini mamnuvini bilan qayd etishni istar edim. Biz bunday tadbirlarda bundan buyon ham faol ishtirok etamiz.

Hurmatli sammit ishtirokchilari!

Bizning uchrashuvimiz jahon siyosatida jiddiy o'zgarishlar kechayotgan, geosiyosiy ziddiyatlar kuchayayotgan va yirik davlatlar o'rtasida o'zaro ishonch zaiflashayotgan davrda o'tmoqda.

Bunday sharoitda tinchlikni saqlash va barqarorlikni mustahkamlash yo'lidagi sa'y-harakatlarimizni birlashtirish alohida ahamiyatga egadir.

Afg'oniston o'zaro hamkorligimizning yana bir muhim yo'nalishi bo'lib qolmoqda. Uni tinch, barqaror va bunyodkor rivojlanish sari borayotgan mamlakat sifatida ko'rish borasidagi bizning intilishlarimiz yakdildir.

Afg'on xalqini qo'llab-quvvatlash bo'yicha ko'p yillardan buyon yetakchi donor va sherik mamlakatlar qatorida bo'lib kelayotgan Yaponiyaning izchil pozitsiyasini yuksak baholaymiz.

Ishonchim komilki, bizning birgalikdagi harakatlarimiz va umumiy hissamiz ushbu mamlakat aholisi turmush darajasini yaxshilash, ijtimoiy-iqtisodiy va infratuzilma rivojlanish, shuningdek, Afg'onistonni mintaqaviy iqtisodiy loyihalariga faol jalb etishga xizmat qiladi.

Hurmatli do'stlar!

So'zimizning yakunida kun tartibidagi barcha masalalar bo'yicha qarorlarni qo'llab-quvvatlashimni bildiraman.

Aminmanki, bugun ilgari surilgan tashabbuslarning ro'yobga chiqarilishi muloqotimiz rivojiga amaliy hissa qo'shadi, mamlakatlarimiz va xalqlarimiz farovonligi yo'lidagi hamkorlikning salmoqli salohiyatidan unumli foydalanishga xizmat qiladi.

O‘ZBEKISTON VA YAPONIYA: STRATEGIK SHERIKLIKNING YANGI BOSQIHI

 – Ishonchim komil, birgalikdagi saʼy-harakatlarimiz bilan yangi marralarga erishamiz. Donishmand yapon xalqi aytganidek, agar kuchlar birlashtirilsa, togʻlarni ham oʻz oʻrnidan jiljitiish mumkin, – dedi Oʻzbekiston yetakchisi.

Prezidentimiz sammit kun tartibiga oʻtar ekan, “Markaziy Osiyo + Yaponiya” formatida hamkorlikni rivojlantirish yuzasidan oʻz nuqtayi nazarini taqdim etdi.

Avvalo, sammitlarni davlat rahbarlari darajasida har ikki yilda bir marta oʻtkazish taklif qilindi. Bu hamkorlikka qoʻshimcha kuchli surʼat bagʻishlashga xizmat qiladi. Navbatdagi shunday uchrashuvlardan birini Oʻzbekistonda qabul qilishga tayyorlik bildirildi.

Yaponiyaning adliya va huquq sohasida hamkorlik boʻyicha yangi doimiy mexanizmini yaratish va kelgusi yili Tokioda adliya vazirlarining birinchi uchrashuvini tashkil etish borasidagi tashabbusi qoʻllab-quvvatlandi.

Davlatimiz rahbari Oʻzbekiston “Markaziy Osiyo – Yaponiya 2040” hamkorlik strategiyasini ishlab chiqib, hujjatga mintaqa mamlakatlarining barqaror rivojlanishiga koʻmaklashish va ularni global iqtisodiy jarayonlarga chuqur integratsiya qilish boʻyicha aniq dastur va loyihalarni kiritish tarafdori ekanligini qayd etdi.

Yangi gʻoya va takliflarni ishlab chiqish, hamkorlikning keng koʻlamli kun tartibini shakllantirish uchun mamlakatlarimizning yetakchi tahlil tuzilmalari ishtirokida Ekspertlar forumini taʼsis etish muhimligi taʼkidlandi. Forumning ilk majlisini kelgusi yili Toshkentda oʻtkazish taklif qilindi.

Oʻzbekiston yetakchisi Yaponiya moliya institutlarining Markaziy Osiyoda savdo-iqtisodiy va investitsiya loyihalarini qoʻllab-quvvatlashni kengaytirishini olqishladi.

– Ishonaman, Markaziy Osiyoning boy tabiiy va kadrlar resurslarini Yaponiyaning sanoat va texnologik salohiyati bilan birlashtirib, bir-birimizni toʻldirish va kuchaytirish boʻyicha samaraga erisha olamiz, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Shu munosabat bilan Markaziy Osiyoning infratuzilmasi va sanoatni rivojlantirish investitsiya jamgʻarmasini taʼsis etish taklif qilindi. Uning negizida “Sifatli infratuzilma” boʻyicha dastur hamda Yaponiya texnoparklarining Markaziy Osiyo tarmoqi – sanoat kooperatsiyasi, mahalliy lashtirish va texnologiyalar transferi mintaqaviy platformasini ishga tushirish mumkin.

Bugun raqamli transformatsiya iqtisodiy oʻsish va barqarorlikning hal qiluvchi omiliga aylanib borayotganidan kelib chiqib, davlatimiz rahbari “Markaziy Osiyo – Yaponiya” raqamli xabi – raqamli yechimlar, sunʼiy intellekt, “buyumlar interneti”, kibernetika va innovatsion iqtisodiyot sohaslarida koʻp tomonlama hamkorlik platformasini yaratish muhimligini qayd etdi.

Tezyurar poyezdlar va avtomobil yoʻllarini barpo etish, transport yoʻlaklarini raqamlashtirish, aeroportlar va logistika markazlarini qurish loyihalariga Yaponiya investitsiyalari, texnologiyalari va ekspertlari koʻmagini jalb etishdan manfaatdorlik bildirildi.

“Yashil” energetika sohasidagi hamkorlik doirasida kogeneratsiya texnologiyalarini joriy etish, yoʻqotishlarni qisqartirish, zararli gazlarni ushlab qolish boʻyicha birgalikda loyihalarni amalga

oshirish muhimligi taʼkidlandi. Toshkentda Qayta tiklanadigan energetika sohasida mutaxassislarni tayyorlash boʻyicha mintaqaviy markazni tashkil etish taklifi ilgari surildi.

Davlatimiz rahbari ekologiya sohasida Markaziy Osiyoda havo sifatini yaxshilash boʻyicha qoʻshma dasturni ishga tushirish, Iqlim oʻzgarishiga qarshi kurashish yuzasidan qoʻshma harakatlar dasturini qabul qilish hamda Muloqot doirasida atrof-muhitni muhofaza qilish idoralari rahbarlarining yangi shakldagi uchrashuvlarini tashkil etish muhimligini qayd etdi.

Yaponiyaning seysmik xavfsizlik sohasidagi ulkan tajribasini hisobga olib, mintaqada seysmik barqarorlikni baholash va oshirish boʻyicha qoʻshma dasturni ishga tushirish, Toshkent shahrida Yaponiya standartlari va protokollari boʻyicha muhandislar, arxitektorlar, qutqaruv xizmatlarini tayyorlash uchun Mintaqaviy malaka oshirish markazini ochish taklif qilindi.

Madaniy-gumanitar sohadagi hamkorlikni yanada kengaytirish maqsadida Oʻzbekistonda kelgusi yili “Markaziy Osiyo + Yaponiya” formatida taʼlim vazirlarining birinchi yigʻilishini, shuningdek, mintaqadagi yetakchi universitetlar rektorlarining ilk forumini oʻtkazish, yoshlar hamjamiyatlari oʻrtasida uzoq muddatli aloqalarni shakllantirishga qaratilgan Yoshlarni rivojlantirish mintaqaviy tarmoq dasturini qabul qilish boʻyicha rejalar taqdim etildi.

Oʻzbekiston yetakchisi xalqaro siyosat va mintaqaviy xavfsizlik masalalariga toʻxtalar ekan, mintaqa davlatlari va Yaponiyaning Afgʻonistonni tinch, barqaror va buniyodkor rivojlanish sari borayotgan mamlakat sifatida koʻrish borasidagi itilishlari yakdilligini taʼkidladi.

Afgʻon xalqini qoʻllab-quvvatlash boʻyicha koʻp yillardan buyon yetakchi donor va sherik mamlakatlar qatorida boʻlib kelayotgan Yaponiyaning izchil pozitsiyasi yuksak baholandi.

Oʻzbekiston Prezidenti soʻzining yakunida kun tartibidagi barcha masalalar boʻyicha qarorlarni qoʻllab-quvvatlashini bildirdi.

Sammitda boshqa yetakchilar ham nutq soʻzladilar. Tadbir yakunida Tokio deklaratsiyasi qabul qilindi.

“Markaziy Osiyo + Yaponiya” muloqoti sammiti doirasida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev koʻp tomonlama biznes forumida ishtirok etdi.

Tadbirda Yaponiya Bosh vaziri Sanae Takaichi, Qozogʻiston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev, Qirgʻiz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov, Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon va Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov ham qatnashdi.

Markaziy Osiyo va Yaponiya oʻrtasidagi savdo-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish, mintaqaga Yaponiya investitsiyalari va ilgʻor texnologiyalarini jalb qilish, sanoat kooperatsiyasini kengaytirish, ishbiarmon doiralr oʻrtasidagi toʻgʻridan-toʻgʻri aloqalarni mustahkamlashning dolzarb masalalari koʻrib chiqildi.

Qoʻshma iqtisodiy loyihalar taqdimot qilindi. “Sumitomo”, “Chubu Electric Power”, “Shikoku Electric Power” kompaniyalari tomonidan “JBIC” va “NEXI” koʻmagida Oʻzbekistonda ikkita quyosh elektr stansiyasini qurish, “Toyota Tsusho” ishtirokida AT

infratuzilmasini modernizatsiya qilish, “Sojitz” kompaniyasi tomonidan koʻp tarmoqli tibbiyot markazini tashkil etish, shuningdek, “JOGMEC” ishtirokida yangi oʻta muhim mineral konlarini oʻzlashtirish kabi Oʻzbekiston – Yaponiya investitsiya tashabbuslari shular jumlasidan.

Yetakchilar huzurida tegishli loyihalar boʻyicha hujjatlar almashildi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Yaponiyaga rasmiy tashrifi doirasida Nara shahri meri Gen Nakagavani qabul qildi.

Madaniy-gumanitar hamkorlikni mustahkamlashga alohida urgʻu bergan holda hududlararo aloqalarni yanada rivojlantirish masalalari muhokama qilindi.

Oʻtmishi uzoq aloqalarga ega boʻlgan Samarqand va Nara shaharlari oʻrtasida birodarlik munosabatlari oʻrnatilgani yuqori baholandi. Samarqand koʻp asrlar davomida Buyuk Ipak yoʻlining markazi, Yaponiyaning qadimgi poytaxti Nara esa uning sharqiy darvozasi boʻlgani taʼkidlandi. Bu shaharlar sivilizatsiyalar oʻrtasidagi madaniy koʻpriklar vazifasini bajarib, xalqaro savdo va bilim almashinuvini rivojlantirishda muhim rol oʻynagan.

2027-yilda Nara milliy muzeyida namoyish etiladigan Oʻzbekiston madaniyati va tarixiga bagʻishlangan arxeologik koʻrgazmaga puxta tayyorgarlik koʻrish muhimligi taʼkidlandi. Ushbu loyiha Oʻzbekiston – Yaponiya diplomatik munosabatlari oʻrnatilganining 35 yilligi sharafiga oʻtkaziladigan yirik madaniy tadbir boʻladi.

Gen Nakagava ikki mamlakat va xalqlar oʻrtasidagi abadiy doʻstlik hamda madaniy va tarixiy yaqinlik ramzi sifatida Nara shahridagi yangi bogʻlarda birga Samarqand nomini berishga qaror qilinganini eʼlon qildi.

Subhat davomida ikki birodar shahar oʻrtasidagi savdo-iqtisodiy va investitsiya aloqalarini faol rivojlantirish hamda qishloq xoʻjaligi, turizm, toʻqimachilik, transport, logistika va shaharsozlik kabi sohalarda kooperatsiya loyihalarini amalga oshirish zarurligi taʼkidlandi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Tokioga rasmiy tashrifi doirasida Yaponiya taʼlim, madaniyat, sport, fan va texnologiyalar vaziri Matsumoto Yoxey, Yaponiya fanni ilgari surish jamiyati prezidenti Sugino Suyosi hamda Yaponiyaning Sukuba, Nagoya, Tottori universitetlari, Tokio qishloq xoʻjaligi va texnologiyalar universiteti, Nagoya iqtisodiyot universiteti kabi yetakchi oliy taʼlim muassasalarining rahbarlari bilan uchrashdi.

Davlatimiz rahbari Yaponiya “iqtisodiy moʻjizasi”ning asosini tashkil etuvchi taʼlim, fan va inson kapitalini rivojlantirishga investitsiyalar Oʻzbekiston – Yaponiya hamkorligining strategik yoʻnalishlaridan biri ekanini taʼkidladi.

Oʻzbekiston Prezidenti Yaponiya uzoq yillar davomida fanga sarflanadigan xarajatlari va ilmiy patentlar soni boʻyicha yetakchilar safida turishini qayd etdi. Mamlakat koʻplab atqoli olimlarni, xususan, fizika, kimyo va tibbiyot sohaslarida Nobel mukofoti sovrindorlarini yetishtirib chiqardi.

Yaponiya maktab taʼlimi modeli tabiiy fanlar va matematika boʻyicha kuchli tayanch bazasi mavjudligi, dars oʻtishning yuqori sifati, mehnatsevarlik, jamoa boʻlib ishlash va intizom madaniyati bilan ajralib turadi. Nufuzli yapon diplomlari, ayniqsa, muhandislik, robototexnika, tibbiyot va

farmatsevtika sohaslarida butun dunyoda yuksak qadrlanadi. Yaponiyada taʼlim va fan bilan sanoat hamda biznes oʻrtasida yaqin va mustahkam aloqalar oʻrnatilgani alohida eʼtiborga loyiq.

Bugungi kunda 2.8 mingdan ortiq oʻzbekistonlik talabalar Yaponiyaning yetakchi taʼlim muassasalarida tahsil olmoqda. Birgina “JDS” stipendiya dasturi boʻyicha 440 dan ziyod davlat xizmatchilari Yaponiyada oʻqitildi.

Rektorlar forumi oʻzaro aloqalar uchun samarali maydonga aylandi. Oktyabr oyida Samarqandda ikki mamlakatning qariyb 50 ta universiteti rektorlari ishtirok etgan beshinchi forum muvaffaqiyatli oʻtkazildi.

Davlatimiz rahbari Oʻzbekistonda taʼlim va fanni rivojlantirishga mamlakatni jadal modernizatsiya qilish, uning raqobatbardoshligi hamda global intellektual va texnologik makonga integratsiyalashuvini taʼminlashning asosi sifatida qaralishini taʼkidladi. Soʻnggi 7-8 yil ichida bu sohada salmoqli ishlar amalga oshirildi. Biroq hal qilinishi kerak boʻlgan vazifalar ham koʻp.

Ilm-fanni tizimli transformatsiya qilish doirasida yangi avlod tadqiqotchilarini shakllantirish, soha faoliyatini klaster modeli asosida tashkil etish, muhim ilmiy yoʻnalishlar boʻyicha resurslarni jamlash kabi ustuvor yoʻnalishlar belgilangan.

Bugungi uchrashuvda qatnashgan Yaponiya universitetlari mamlakatimiz uchun eng dolzarb boʻlgan sunʼiy intellekt va raqamli texnologiyalar, qishloq va suv xoʻjaligi, “yashil” energiya va barqaror rivojlanish, seysmologiya va “aqlli shahar” texnologiyalari kabi sohalar boʻyicha mustahkam ilmiy-tadqiqot infratuzilmasiga va yuqori ilmiy hamda pedagogik salohiyatga ega ekanligi taʼkidlandi. Ushbu yoʻnalishlar boʻyicha Oʻzbekiston universitetlari bilan yaqin hamkorlik boshlangan. Kuni kecha qoʻshma loyihalarini amalga oshirishga oid qizgʻin muzokaralar boʻlib oʻtdi va yangi kelishuvlarga erishildi.

Hamkorlikni yanada rivojlantirish uchun taʼlim va fan boʻyicha qoʻshma komissiya, innovatsiyalar borasida konsorsium tashkil etish, flagman loyihalar, shu jumladan, oʻquv jarayoniga Slni joriy etish loyihalarini amalga oshirish hamda muhandislik mutaxassislilklari boʻyicha oʻquv dasturini ishga tushirish taklif qilindi.

Tadbir doirasida oliy taʼlim sohasida hamkorlik toʻgʻrisidagi hukumatlararo bitim, Sukuba universiteti bilan birgalikda Oʻzbekistonda oliy taʼlim muassasasini tashkil etish toʻgʻrisidagi memorandum hamda ilmiy hamkorlik va kadrlar tayyorlash sohaslarida bir qator boshqa hujjatlar imzolandi.

Erishilgan kelishuvlarni tizimli va oʻz vaqtida amalga oshirishni taʼminlash uchun “Yoʻl xaritasi” qabul qilindi.

Shundan soʻng “Kantey” qarorgohida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevni rasmiy kutib olish marosimi boʻlib oʻtdi.

Yaponiya Bosh vaziri Sanae Takaichi davlatimiz rahbarini samimiy kutib oldi va shohsupaga taklif qildi.

Ikki mamlakatning davlat madhiyalari yangradi. Yetakchilar faxriy qorovul safi oldidan oʻtdilar va rasmiy delegatsiyalar aʼzolarini qutladilar.

Tokioda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Yaponiya Bosh vaziri Sanae Takaichining muzokaralari boʻlib oʻtdi.

Davlatlararo hamkorlikning deyarli

barcha sohalarini qamrab olgan Oʻzbekiston – Yaponiya strategik sheriklik munosabatlari yanada kengaytirish masalalari atroflicha muhokama qilindi.

Yaponiya Bosh vaziri davlatimiz rahbarini samimiy qutlar ekan, ushbu tashrifi har doimgidek yuksak ishonch va oʻzaro hurmat tamoyillariga asoslangan Oʻzbekiston – Yaponiya munosabatlari tarixidagi muhim voqea deb atadi.

Diplomatik munosabatlari oʻrnatilganidan buyon oʻtgan 33 yil davomida Yaponiya Oʻzbekistonning yaqin doʻsti, asosiy texnologik va investitsiyaviy sherigi boʻlib, respublikada zamonaviy sanoat va energetika infratuzilmasini yaratish hamda inson resurslarini rivojlantirishga salmoqli hissa qoʻshib kelmoqda.

Tovar ayirboshlash, investitsiyalar hajmi va Yaponiya sarmoyasi ishtirokidagi qoʻshma korxonalar sonining barqaror oʻsayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Energetika, geologiya, turizm, infratuzilmani rivojlantirish, AT va boshqa ustuvor sohalarda muhim loyihalarni amalga oshirib kelayotgan “Sojitz”, “Toyota Tsusho”, “Sumitomo”, “Itochu”, “Kyoto Plaza”, “Balcom”, “Shikoku Electric” kabi yetakchi yapon kompaniyalari Oʻzbekistonda muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda.

Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi (JICA) va Yaponiya xalqaro hamkorlik banki (JBIC) bilan qoʻshma loyihalar portfeli energetika, neft-kimyo, transport, taʼlim va qishloq xoʻjaligi kabi sohalarni qamrab olgan.

Muzokaralarda parlamentlardagi “doʻstlik guruhlari”, iqtisodiy hamkorlik koʻmitalari, ustuvor yoʻnalishlar boʻyicha tarmoq uchrashuvlari va boshqa hamkorlik shakllarini faollashtirish muhimligi taʼkidlandi.

Davlatimiz rahbari Yaponiya bilan strategik sheriklikni rivojlantirishning bir qator asosiy yoʻnalishlarini qayd etdi. “Yashil” energetika va sanoatda uglerod chiqarishni kamaytirish, axborot texnologiyalari, oʻta muhim mineralar, mashinasozlik sohasidagi hamkorlik, sogʻliqni saqlash va turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish shular jumlasidan.

Mazkur sammitga tayyorgarlik doirasida qiymati 12 milliard dollardan ortiq boʻlgan kooperatsiya loyihalarining yangi portfeli shakllantirilgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Ushbu loyihalarni ilgari surish uchun qoʻshma investitsiya platformasini yaratish taklif qilindi.

Bundan tashqari, Samarqand viloyatida Yaponiya modeli va standartlariga asoslangan maxsus iqtisodiy zonani barpo etish rejalari eʼlon qilindi.

Yaponiyalik hamkorlar bilan birgalikda amalga oshirilayotgan “Bir qishloq – bitta mahsulot” dasturining koʻlamini kengaytirish taklifi qoʻllab-quvvatlandi.

Shuningdek, oʻzaro savdo hajmini koʻpaytirish imkoniyatlari va yoʻllari, hududlararo aloqalarni kengaytirish masalalari muhokama qilindi. Kelgusi yili Samarqandda ikki mamlakat hududlarining birinchi forumini oʻtkazish taklif qilindi.

Gumanitar almashinuvlarni faollashtirishga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Taʼlim va kadrlar tayyorlash sohasi anʼanaviy ravishda ushbu koʻp qirrali munosabatlarning muhim qismi sanaladi.

Yoshlarga kelgusida tadbirkorlik

loyihalarini amalga oshirishi uchun zarur boʻlgan bilim va koʻnikmalarni egallashiga keng imkoniyatlar taqdim etayotgan Oʻzbekiston – Yaponiya Inson resurslarini rivojlantirish markazi mamlakatimizda muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda.

Oʻzbekistondagi 7 ta oliy taʼlim muassasasida yapon tili oʻqitilmoqda. Tokio chet tillar universitetida mana 10 yildirki, oʻzbek tili oʻrganilmoqda.

Rektorlar forumi kadrlar tayyorlash sohasida tajriba almashish uchun muhim maydon boʻlib xizmat qilmoqda. Yaponiyaning yetakchi oliy taʼlim muassasalari rektorlari bilan uchrashuv boʻlib oʻtdi. Hamkorlik dasturlari, ilmiy va innovatsion almashinuvlarni kengaytirish boʻyicha muhim kelishuvlarga erishildi.

Sukuba universiteti bilan birgalikda Toshkent shahrida birinchi Oʻzbekiston – Yaponiya universitetini tashkil etish rejalashtirilmoqda.

Madaniy va sayyohlik aloqalarini kengaytirish maqsadida madaniyat kunlari, koʻrgazmalar, yoshlar forumlari, kinofestivallarni muntazam oʻtkazib borish taklif qilindi. Tashrif arafasida Yaponiyada Oʻzbekiston madaniyati kunlari muvaffaqiyatli oʻtkazildi.

Diplomatik munosabatlari oʻrnatilganining 35 yilligi munosabati bilan 2027-yilda ikki mamlakatda Madaniyat yillari oʻzaro oʻtkazildi.

Muzokaralarda mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashildi.

Yakunda Oʻzbekiston Prezidenti va Yaponiya Bosh vaziri Kelgusi avlodlar uchun kengaytirilgan strategik sheriklik toʻgʻrisidagi qoʻshma bayonotni imzoladilar. Ushbu hujjat, shubhasiz, munosabatlarni yangi bosqichga koʻtarishi va koʻp qirrali hamkorlikni kengaytirish uchun keng imkoniyatlar ochishi taʼkidlandi.

Tashrif doirasida taʼlim, sogʻliqni saqlash, ekologiya, suv resurslari, transport, shaharsozlik, turizm, qishloq xoʻjaligi, tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish sohaslarida salmoqli kelishuvlar toʻplami qabul qilindi. Ushbu hujjatlarni almashish marosimi boʻlib oʻtdi.

Oliy darajadagi muzokaralar yakunlangach “Kantey” qarorgohida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning rasmiy tashrifi sharafiga Yaponiya Bosh vaziri Sanae Takaichi nomidan qabul marosimi tashkil etildi.

Tadbirda ikki mamlakat rasmiy delegatsiyalari aʼzolari, ishbiarmon doiralari va jamoatchilik vakillari ham ishtirok etdi.

Mamlakatimiz yetakchisi va Yaponiya hukumati rahbari boʻlib oʻtgan muzokaralar natijalaridan, ularning yakunida ikki tomonlama aloqalar kengaytirilgan strategik sheriklik darajasiga koʻtarilganidan mamnuniyat bildirdilar.

Oʻzbekiston – Yaponiya munosabatlari bundan buyon ham mustahkamlashga intilish qatʼiy ekani taʼkidlandi.

Yaponiyadagi tadbirlar yakunlangach, Oʻzbekiston Prezidenti Sankt-Peterburgda boʻlib oʻtadigan Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqining boʻljaj yigʻilishi va Mustaqil Davlatlar Hamdoʻstligiga aʼzo davlat yetakchilarining norasmiy sammitida ishtirok etish uchun amaliy tashrif bilan Rossiyaga joʻnab ketdi.

OʻZA.

YEVROOSIYO MAKONIDA AMALIY MULOQOT VEKTORI

21-22-dekabr kunlari Oʻzbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Sankt-Peterburg shahrida boʻlib oʻtadigan Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi (YOII)ning sammitida hamda Mustaqil Davlatlar Hamdoʻstligi (MDH) davlat rahbarlarining norasmiy uchrashuvida qatnashadi.

Hamkorlik

Davlatimiz rahbarining ushbu tadbirlardagi ishtiroki Oʻzbekistonning iqtisodiy hamkorlikni chuqurlashtirish, kooperatsiya aloqalarini kengaytirish va Yevroosiyo makonida oʻzaro barqaror hamkorlik mexanizmlarini shakllantirishga qaratilgan strategik yoʻlining mantiqiy davomi sifatida baholanmoqda.

Soʻnggi yillarda iqtisodiy diplomatiya Oʻzbekiston tashqi siyosiy strategiyasining asosiy vositalaridan birga aylandi. Shu nuqtayi nazardan, Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi bilan aloqalar alohida ahamiyat kasb etadi.

YOII 2001 – 2014-yillarda faoliyat yuritgan va yagona iqtisodiy makonni yaratish uchun institutsional asos boʻlib xizmat qilgan Yevroosiyo

iqtisodiy hamjamiyati tajribasi asosida shakllandi. Mazkur integratsiya modelining muhim xususiyati shundaki, YOIIga aʼzo davlatlarning aksariyati bir vaqtning oʻzida MDH tarkibiga ham kiradi. Bu esa iqtisodiy jarayonlarning oʻzaro bogʻliqligini va mintaqaviy kooperatsiyaning davomiyligini taʼminlaydi.

Oʻzbekiston 2019-yilda sanoatni modernizatsiya qilish, eksportga yoʻnaltirilgan tarmoqlarni rivojlantirish va mintaqaviy qoʻshilgan qiymat zanjirlariga integratsiyalashuv vazifalaridan kelib chiqib, YOII bilan kengaytirilgan hamkorlikni oʻrganishga kirishdi. 2020-yilda kuzatuvchi maqomining olinishi va keyinchalik idoralararo muvofiqlashtirishdan tortib Yevroosiyo iqtisodiy komissiyasi bilan doimiy aloqalargacha boʻlgan institutsional mexanizmlarning yoʻlga qoʻyilishi mazkur

muloqotni amaliy darajaga olib chiqish imkonini berdi.

Bugungi kunda Oʻzbekistonning YOII bilan hamkorligi aniq yoʻnalishlarni qamrab oldi. Mamlakatimiz logistikani soddalashtirish, transport koridorlarini raqamlashtirish, elektron tijorat va agrologistik marshrutlarni rivojlantirishga qaratilgan tarmoq hamda infratuzilma loyihalarida faol ishtirok etmoqda.

Yevroosiyo makonidagi yana bir muhim hamkorlik platformasi – Mustaqil Davlatlar Hamdoʻstligi. U iqtisodiy, gumanitar va institutsional hamkorlikning keng koʻlamli formati boʻlib qolmoqda. Oʻzbekiston ushbu tashkilot doirasida izchil ravishda pragmatik va siyosiy lashmagan kun tartibini ilgari surib kelmoqda.

Sankt-Peterburgdagi mazkur boʻljaj sammit norasmiy va ishonchli muhitda fikr almashish, yondashuvlarni muvofiqlashtirish va birgalikdagi ishlar yakunlarini sarhisob qilish uchun qulay imkoniyat yaratadi.

2017-yildan buyon Oʻzbekiston MDH faoliyatidagi ishtirokini sezilarli darajada faollashtirib, asosiy eʼtiborni iqtisodiy yoʻnalishga qaratdi.

Mamlakatimiz umumiy bozorlarni shakllantirish, sanoat kooperatsiyasi, transport bogʻliqligi va investitsiyaviy hamkorlikni rivojlantirish bilan shugʻullanuvchi koʻplab tarmoq organlariga qoʻshildi. Oʻzbekiston tomonining tashabbuslari uzoq muddatli iqtisodiy samaraga yoʻnaltirilgan konseptual hujjatlar va amaliy qarorlarda oʻz aksini topdi. Oʻzbekistonda MDHning yirik tadbirlari, jumladan, nizom organlari majlislari, iqtisodiy va ekspert forumlarining oʻtkazilishi mamlakatimizning integratsiya kun tartibini ishlab chiquvchi markazlardan biri sifatidagi roli oshayotganidan dalolat beradi.

Oʻzbekiston Prezidentining Sankt-Peterburgdagi tadbirlarda ishtirok etishi ulkan strategik ahamiyatga ega. Oʻzbekiston mintaqaviy birlashmalarda qatnashishning

“Bugungi kunda Oʻzbekistonning YOII bilan hamkorligi aniq yoʻnalishlarni qamrab oldi. Mamlakatimiz logistikani soddalashtirish, transport koridorlarini raqamlashtirish, elektron tijorat va agrologistik marshrutlarni rivojlantirishga qaratilgan tarmoq hamda infratuzilma loyihalarida faol ishtirok etmoqda.”

pragmatizm, iqtisodiy maqsadga muvofiqlik va aniq natijaga yoʻnaltirilgan modelini izchil shakllantirmoqda. Shu maʼnoda, MDH makoni va unga bogʻliq integratsiya mexanizmlari rasmiy Toshkent tomonidan barqaror rivojlanish, iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish va sheriklik aloqalarini mustahkamlash uchun muhim platforma sifatida baholanmoqda.

“Dunyo” AA.



Aks sado

OʻZARO MUNOSABATLAR TARIXIDA UNUTILMAS VOQYELIK



Davlatimiz rahbarining “Markaziy Osiyo + Yaponiya” muloqotining birinchi sammitida ishtirok etish uchun ushbu mamlakatga rasmiy tashrifi doirasida Yaponiya Imperatori Naruxito, Bosh vazir Sanae Takaichi, ishbilarmontlar, parlamentlar aʼzolari, ishbilarmontlar va boshqa rasmiy doira vakillari bilan samimiy ruhda oʻtgan uchrashuvlar Oʻzbekiston – Yaponiya oʻrtasidagi doʻstona aloqalarini yanada mustahkamlash yoʻlida yangi davrni boshlab berdi. Buni nafaqat mahalliy, balki dunyo matbuoti ham yuqori baholamoqda.

Tarixdan maʼlumki, bu ikki davlat azaldan bir-biri bilan yaqin munosabatda boʻlib kelayotir. Oʻzbek hamda yapon xalqlarining oʻxshash qadriyatlari, urf-odatlari doʻstlik rishtalarini mustahkamlamoqda. Davlatimiz rahbari sammitdagi chiqishida taʼkidlab oʻtganidek, bizning Yaponiya bilan yaqin savdo va madaniy aloqalarimiz Buyuk Ipak yoʻli davridan rivojlana boshlagan.

Yurtboshimiz qaysi davlatga bormasin, avvalo, oʻsha mamlakat bilan doʻstlik aloqalarini mustahkamlashga, tashrif dasturi qanchalik tigʻiz boʻlmasin, albatta, uning rasmiy doiralari, ishbilarmontlari, yirik kompaniyalari vakillari bilan uchrashib, turli sohalarda manfaatli kelishuvlarga erishishga harakat qiladi. Yaponiyaga ikki kunlik rasmiy tashrifida amalga oshirgan ishlari, erishilgan natijalar fikrimizga yaqqol misoldir. Shu bois mazkur tarixiy tashrif yakunlanib borayotgan 2025-yilning zarvaragʻiga unutilmas voqelik sifatida muhrlandi, desak, ayni haqiqat.

Bu aloqalar Prezidentimizning tashabbusi bilan soʻnggi yillarda mutlaqo yangi bosqichga chiqib bormoqda. Mamlakatlar oʻrtasidagi taʼlim va kadrlar tayyorlash hamda madaniy-gumanitar almashinuvlar bunga misol. Mazkur yoʻnalishlardagi hamkorlik yildan-yilga kengayib boryapti. Bugungi kunga qadar uch mingga yaqin oʻzbekistonlik talabalar Yaponiyada taʼlim olayotgani, 440 nafardan ziyod davlat xizmatchilari esa stipendiya dasturi asosida oʻqitilgani, oʻz navbatida, yurtimizdagi yettita universitetda yapon tili oʻqitilayotgani va boshqa sohalardagi aloqalar fikrimizni yaqqol tasdiqlaydi.

Yuqorida Oʻzbekiston – Yaponiya oʻrtasida azaldan hamkorlik mavjud deganimiz bejiz emas. Navoiy kon-metallurgiya kombinati va “Komatsu” hamda “Hitachi” kompaniyalari oʻrtasidagi koʻp yillik hamkorlik bunga isbot boʻla oladi. Dunyoga mashhur bu kompaniyalar bizga eng soʻnggi rumadagi togʻ-kon sanoati texnikalarini yetkazib

bermoqda. Mazkur kompaniyalarning 90 tonnadan 254 tonnagacha yuk koʻtarish quvvatiga ega “Komatsu”, “Hitachi EH4000AC” rusumli avtoagʻdargichlari hamda yoʻl-qurilish texnikalaridan togʻ jinslarini qazish, yuklash va tashishda foydalanib kelyapmiz. Ushbu lider kompaniyalar bilan kelgusida ham oʻzaro sherikligimiz davom etadi.

Mamlakatimiz rahbarining Yaponiya iqtisodiyot, savdo va sanoat vaziri Ryosey Akazava, “Sojitz”, “Sumitomo”, “Toyota”, “Hitachi”, “Mitsui” va boshqa oʻnlab yetakchi kompaniyalar, korporatsiyalar, assotsiatsiyalar, moliya institutlari, banklari, sayyohlik agentliklari vakillari bilan uchrashuvi Oʻzbekistonimiz uchun yangi sahifa ochdi.

Alohida taʼkidlash joizki, Yaponiya kompaniyalari yaqin yillargacha, asosan, pudrat loyihalarida ishtirok etgan boʻlsa, bugungi kunda Oʻzbekiston iqtisodiyotiga faol investitsiya kiritib, qoʻshma korxonalar

qurmoqda, boshqa yoʻnalishlarda koʻp qirrali hamkorlikni kuchaytirmoqda. Bu, shubhasiz, yurtimizda xorijiy kompaniyalar uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar, qulay investitsiyaviy muhit va ishonchdan dalolat.

Prezidentimiz “JOGMEC” va “ITOCHU” tashkilotlari rahbarlari Ichiro Takaxara va Djun Inomata bilan boʻlgan muloqotda qator qoʻshma loyihalarni amalga oshirish masalalarini muhokama qildi. Unda bu kompaniyalar Navoiy va Qashqadaryo viloyatlaridagi uran konlarini oʻzlashtirishda qatnashayotgani yuqori baholandi. Shuningdek, mazkur kompaniyalar bilan yurtimiz hududlaridagi istiqbolli konlardan qimmatbaho metallarni qazib olish masalasini koʻrib chiqish boʻyicha muzokaralar olib borilgani va kelishuvlarga erishilgani Oʻzbekiston togʻ-kon sanoati va geologiya sohasida yangi qadam boʻlishi tabiiy. “ITOCHU” korporatsiyasini olsak, u mashinasozlik, geologiya va infratuzilma sohalarida koʻp yillik hamkorlik tajribasiga ega.

Jahonda har tomonlama rivojlanib borayotgan mamlakatlarning biri sifatida tan olingan ushbu Kunchiqar davlat bilan azaliy doʻstlik aloqalari yangi darajaga koʻtarilgani har ikki tomon uchun kelgusida ijobiy mazmun kasb etishi, shubhasiz.

Quvondiq SANAQULOV,
«NKMK» AJ bosh direktori,
Oliy Majlis Senati aʼzosi.

DOʻSTONA ALOQALARNI
YANADA MUSTAHKAMLASH YOʻLIDA

Yaponiya – Oʻzbekistonning Osiyodagi eng ishonchli va uzoq muddatli hamkorlaridan biri. Oʻzbek va yapon xalqlarini mentalitetlar, urf-odatlar va oilaviy qadriyatlar oʻxshashligi bogʻlab turadi. Bu jihatlar xalqlarimizning bir-birini yaxshiroq anglashiga va yaqinlashishiga zamin yaratmoqda.

Rasmiy Tokio rasmiy Toshkent-ni geografik joylashuvi va iqtisodiy salohiyati jihatidan Markaziy Osiyo mintaqasidagi muhim hamkor sifatida koʻradi. Buyuk Ipak yoʻli davridan boshlab shakllangan savdo va madaniy aloqalar bugungi kunda strategik sheriklik, iqtisodiy hamkorlik va chuqur insoniy rishtalar bilan boyib bormoqda.

Davlatlar oʻrtasidagi hamkorlik sifat jihatidan yangi mazmun kasb etib, Yaponiya kompaniyalari ilgari, asosan, pudrat loyihalarida qatnashgan boʻlsa, bugungi kunda mamlakat iqtisodiyotiga faol investitsiya kiritgan holda qoʻshma korxonalar yaratmoqda, boshqaruv, texnologiyalar transferi va milliy kadrlarni tayyorlashga oʻz hissasini qoʻshyapti.

Savdo-iqtisodiy koʻrsatkichlarda ham ijobiy surʼat kuzatilmoqda.

Ikki mamlakatning koʻp qirrali hamkorligida parlamentlararo munosabatlar ham muhim oʻrin tutadi. Soʻnggi yillarda ikki

tomonlama parlamentlararo aloqalar surʼati sezilarli ravishda faollashdi. Doʻstlik ijodkorlari faoliyati jonlanib, qonun ijrokorligi, parlament nazorati yoʻnalishlarida tajriba almashilyapti. Xususan, joriy yil aprel oyida poytaxtimizda boʻlib oʻtgan Parlamentlararo Ittifoqning 150-assambleyasida Yaponiya parlamenti Vakillar palatasi aʼzolari faol ishtirok etgan boʻlsa, may oyida Qonunchilik palatasi Spikeri boshchiligidagi delegatsiya Tokioda navbatdagi parlamentlararo forumda qatnashdi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Yaponiya Bosh vaziri Sanae Takaichining taklifiga binoan ushbu mamlakatga rasmiy tashrifi Oʻzbekiston – Yaponiya doʻstlik va strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash yoʻlidagi muhim voqea boʻlib, ikki tomonlama munosabatlarida tub bulirish yasadi.

Tashrif doirasida davlatimiz rahbarining Yaponiya

parlamentining Vakillar palatasi Spikeri bilan uchrashuvi oʻzaro munosabatlarni chuqurlashtirishda muhim qadam boʻldi va bu ikki tomonlama hamkorlikni barqaror va uzoq muddatli rivojlantirishga xizmat qilishi, shubhasiz.

Prezidentimizning Yaponiyaga rasmiy tashrifining ishblarmontlik dasturiga muvofiq, ushbu mamlakatning yetakchi kompaniyalari, moliya institutlari va biznes uyushmalari rahbarlari bilan uchrashuvi esa Oʻzbekiston – Yaponiya biznes va investitsiya munosabatlarida “yangi faza” boshlanganini koʻrsatmoqda. Bunday uchrashuvlar iqtisodiy hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir. Chunki Yaponiya yuqori texnologiyalar, innovatsiya, sanoatni modernizatsiya qilish va sifatlil boshqaruv tajribasi bilan dunyoda yetakchi davlatlardan biri boʻlib, yapon kompaniyalari bilan toʻgʻridan-toʻgʻri muloqot Oʻzbekiston iqtisodiyotiga ilgʻor texnologiyalar va zamonaviy ishlab chiqarish standartlarini jalb etish imkonini kengaytiradi.

Oʻz navbatida, bu xususiy sektor oʻrtasida toʻgʻridan-toʻgʻri aloqalarni rivojlantirish, qoʻshma korxonalar

ochish, kichik va oʻrta biznesni qoʻllab-quvvatlash uchun yangi imkoniyatlarni yaratib, ish oʻrinlari va eksport salohiyatining oʻsishiga xizmat qiladi.

Albatta, mazkur uchrashuvlar yirik investitsiya loyihalarini moliyalashtirish, infratuzilma, energetika, transport, sanoat va ijtimoiy sohalarda uzoq muddatli hamkorlikni mustahkamlash nuqtayi nazaridan juda muhim boʻlib, Oʻzbekistonning ochiq, ishonchli va investitsiyalar uchun jozibador davlat sifatidagi xalqaro imijini mustahkamlaydi.

Prezidentimizning Yaponiya ishblarmontlarini sanoatlashuvni tezlashtirish, ilgʻor texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va eksport salohiyatini kengaytirishga qaratilgan Oʻzbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish jarayonlarida faol ishtirok etishga taklifi muhim ahamiyatga ega. Bu sanoatlashuvni tezlashtirish, raqamli texnologiyalar, robototexnika, mashinasozlik, “yashil” energetika va kimyo sanoati kabi sohalarga zamonaviy yechimlarni yoʻnaltirishga xizmat qiladi.



Yaponiya bilan iqtisodiy hamkorlikni kuchaytirish investitsiya muhitini yaxshilash barobarida, mamlakatimizda boʻlgan ishonchni oshirib, boshqa rivojlangan davlatlar uchun ham ijobiy signal vazifasini oʻtadi. Shu nuqtayi nazardan aytganda, bu taklifi Oʻzbekistonni yuqori qoʻshilgan qiymatli mahsulot ishlab chiqaradigan, raqobatbardosh va innovatsion iqtisodiyotga aylantirish yoʻlida muhim qadam deyish mumkin.

Nargiza SALOMOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasi deputati.

FAOL, DADIL VA PRAGMATIK DIPLOMATIYANING
YANA BIR YAQQOL IFODASI

18 – 20-dekabr kunlari Oʻzbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Yaponiyaga rasmiy tashrifi hamda “Markaziy Osiyo + Yaponiya” muloqotining oliy darajadagi sammitida ishtirok etishi Oʻzbekistonning mintaqaviy jarayonlardagi oʻrtib borayotgan roli hamda yetakchi xalqaro sheriklar bilan koʻp tomonlama hamkorlikni kengaytirish tamoyiliga sodiqligini yana bir bor tasdiqladi.

Dunyo nigohi

Ekspertlar va xalqaro tahliiy hamjamiyat vakillari ushbu tadbirlar yakunlarini baholalar ekan, ular “Markaziy Osiyo + Yaponiya” muloqotini oʻzaro institutsional rivojlantirishga muhim hissa koʻshganini, shuningdek, mintaqa mamlakatlarining Yaponiya bilan siyosiy, iqtisodiy va gumanitar sohalarda barqaror va manfaatli muloqot oʻrnatishga intilishini namoyish etganini taʼkidlamogda.

Mehmet Seyfettin EROL,
Anqara inqirozlar va siyosat tadqiqotlari
markazi rahbari:



– Baʼzan birgina xorijiy tashrif mamlakatning tashqi siyosati haqida oʻnlab dasturiy hujjatlar va balandparvoz deklaratsiyalardan koʻra koʻproq maʼlumot beradi. Oʻzbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Yaponiyaga tashrifi aynan shunday voqea boʻldi. Bu rasmiy Toshkentning voqealar ortidan ergashishni

emas, balki bir qadam oldinda yurishni afzal koʻrib, faol, dadil hamda pragmatik diplomatiyani tanlayotgani ifodasidir. Bu uqlarni kengaytirish, xalqaro mavqeni mustahkamlash va Oʻzbekistonning global kun tartibida oʻz oʻrnini ishonchli namoyon etish yoʻlidir.

Tokio dasturining mazmunan boyligi tashrifning ilk soatlaridanog koʻzga yaqqol tashlandi. Yaponiya Imperatori, parlamentning har ikki palatasi rahbariyati bilan uchrashuvlar, yuzta kompaniya ishtirokidagi keng koʻlamli biznes-forum, beshta yetakchi korporatsiya bilan alohida muzokaralar hamda iqtisodiyot, savdo va sanoat vazirligi bilan oʻtkazilgan batafsil muloqot shular jumlasidan.

Tashrif jarayonini kuzatar ekanman, siyosat, iqtisodiyot va institutlarning bir-birini oʻzaro kuchaytiruvchi nozik uygʻunligiga guvoh boʻldim. 20-dekabr kuni ushbu mantiq “Markaziy Osiyo + Yaponiya” sammitida, ikki tomonlama muzokaralarda

va Yaponiya Bosh vaziri bilan oʻtkazilgan rasmiy uchrashuvda oʻz aksini topdi. Bularning barchasi shuni koʻrsatadiki: Oʻzbekiston bugun xalqaro kun tartibida shunchaki ishtirok etmayapti – u tobora ishonch bilan uning qoidalari va parametrlarini shakllantirishda qatnashmoqda.

Kengroq maʼnoda, ushbu tashrif Oʻzbekistonning yangi tarixidagi eng sermazmun va faol tashqi siyosiy davrlardan biri sanalgan 2025-yilga toʻlaqonli mutanosib boʻldi. Shavkat Mirziyoyev siyosati yangi imkoniyatlarni ochuvchi aniq yoʻnalishlarga asosan qurilmoqda: xalqaro aloqalar geografiyasi muttasil oʻsib bormoqda, ularning mazmuni esa chuqur va amaliy tus olayotir. Shu fonda Markaziy Osiyo asta-sekin “chekka hudud” boʻlishdan toʻxtab, transport, energetika va investitsiyalar sohasida nufuzi ortayotgan Yevrosiyaning mustaqil boʻlagiga aylanib bormoqda. Aynan Oʻzbekiston bugungi kunda mintaqani yangi energiya va maʼno bilan toʻldirgan holda ushbu jarayonga jadal surʼat beryapti.

Oʻzbekiston infratuzilmasini modernizatsiya qilishga yoʻnaltirilgan Yaponiya investitsiyalari hamkorlikning mustahkam iqtisodiy asosini tashkil etadi. Bu shunchaki tarqoq loyihalar yoki bir martalik qadamlar emas, balki uzoq yillarga moʻljallangan tizimli ishd.

Yaponiya ham Markaziy Osiyoga teng huquqlik va suveren manfaatlarini hurmat qilishga asoslangan hamkorlik modelini taklif etmoqda. Oʻzbekistonning xalqaro maydondagi Yaponiya tashabbuslarini faol qoʻllab-quvvatlashi, ijtimoiy sohadan tortib xavfsizlik, energetika va transport infratuzilmasini rivojlantirishgacha boʻlgan qoʻshma loyihalar ikki tomonlama munosabatlarning yuqori ishonch va yetuklik darajasini koʻrsatadi.

Andrey GROZIN,
MDH davlatlari instituti Oʻrta Osiyo va
Qozogʻiston boʻlimi mudiri, Sharqshunoslik
instituti katta ilmiy xodimi:

– Ushbu voqealar Oʻzbekiston va Yaponiya munosabatlarida oʻziga xos ramziy ahamiyatga ega. Fikrimcha, Yaponiya bilan sheriklik Oʻzbekiston

tashqi siyosatining eng muhim yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi. Oʻzbekiston tomonidan amalga oshirilayotgan pragmatik siyosat, yaʼni imkon qadar keng koʻlamli yoʻnalishlar boʻyicha oʻzaro manfaatli iqtisodiy aloqalarni yoʻlga qoʻyish mazkur tashrifning asosini tashkil etadi.

Yaponiya mintaqa markazi – Oʻzbekiston bilan sheriklik qilishdan manfaatdor. Shu nuqtayi nazardan, Oʻzbekiston Prezidentining tashrifi har ikki tomon – ham Tokio, ham Toshkent uchun muhim ahamiyatga ega, deb hisoblayman.

Umuman olganda, ikki mamlakatning oʻzaro hurmati va manfaatlariga urgʻu berilgan holda oʻtgan ushbu tashrif Markaziy Osiyo mintaqasida transport infratuzilmasini yaxshilash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

Yan CHEN,
Shanxay xalqaro tadqiqotlar universiteti
qoshidagi Shanxay global boshqaruv va
mintaqaviy tadqiqotlar akademiyasi
direktori, professor:



– “Markaziy Osiyo + Yaponiya” muloqoti mintaqaviy rivojlanish, iqtisodiy barqarorlik, ekologiya, energetika va xavfsizlik masalalarida muvofiqlashuv hamda hamkorlikning muhim vositasi hisoblanadi. Oliy darajadagi birinchi sammit Markaziy Osiyo mamlakatlarining siyosiy ijpislashuvi ortib borayotganini va ularning Yaponiya bilan sheriklikni chuqurlashtirishga intilishini tasdiqladi. Va ushbu sammit mintaqaning barqaror rivojlanish masalalarini muhokama qilish uchun yangi va samarali platformaga aylandi.

Tokio anʼanaviy ravishda “JICA” va “JBIC” tashkilotlari orqali mintaqadagi infratuzilma tashabbuslarini qoʻllab-quvvatlab, transport koridorlari, logistika markazlari hamda energetika obyektlarini modernizatsiya qilishda qatnashib kelmoqda. Bunday loyihalar mintaqaviy bogʻliqlikni oshiradi va Markaziy Osiyoning Sharq bilan Gʻarb oʻrtasidagi logistika koʻprigi sifatidagi rolini mustahkamlaydi.

Yaponiya Oʻzbekistonda ochilayotgan ishlab chiqarish quvvatlariga yuqori ekologik va texnologik

standartlarni joriy etishga koʻmaklashishi mumkin. Bu mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshiradi va nafaqat Yaponiya, balki boshqa jahon bozorlariga ham yoʻl ochadi.

Oʻzbekiston muloqot doirasida faol va konstruktiv pozitsiyani egallab, oʻzaro hamkorlikni kengaytirish, chegaralar xavfsizligini mustahkamlash, ildim hamda ekologik muammolarga qarshi kurashni faollashtirish, savdo, investitsiya, transport va energetika sohalaridagi loyihalarini davom ettirish tarafdori boʻlmoqda.

Oʻzbekistonning ichki va tashqi siyosatdagi salmoqli islohotlari nafaqat mamlakat taraqqiyoti, barqarorligi hamda aholi turmush darajasini yaxshilash bilan bogʻliq, balki butun mintaqaviy hamkorlik arxitekturasini va rivojlanish yoʻnalishlariga tobora chuqur taʼsir koʻrsatmoqda. Kuchayib borayotgan geosiyosiy “turbulentslik” va xalqaro tartibning transformatsiyasi sharoitida Oʻzbekistonning strategik tanlovi va tashqi siyosiy yoʻnalishlari nafaqat milliy, balki mintaqaviy ahamiyatga ega.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning Yaponiyaga tashrifi va “Markaziy Osiyo + Yaponiya” muloqoti sammitidagi ishtiroki ham ikki tomonlama, ham koʻp tomonlama hamkorlikni chuqurlashtirish uchun yangi imkoniyatlar ochadi.

Rustam BURNASHEV,
qozogʻistonlik ekspert, falsafa fanlari
nomzodi, professor:

– Yaponiya tomoni, xususan, Imperator Naruxito Oʻzbekiston Prezidentining tashrifini Oʻzbekiston – Yaponiya doʻstlik va strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlashdagi muhim voqea, deb baholadi. Ushbu baho Oʻzbekiston tomoni uchun ham xosdir.

Tashrifning muhim tarkibiy qismlaridan biri – Prezident Shavkat Mirziyoyevning Yaponiyada mehnat qilayotgan va tahsil olayotgan oʻzbekistonliklar bilan uchrashuvi boʻldi. Bu koʻp jihatdan taʼlim, kadrlar tayyorlash hamda madaniy-gumanitar almashinuv sohasidagi hamkorlik Oʻzbekiston va Yaponiya oʻrtasidagi ikki tomonlama munosabatlarning eng dadil rivojlanayotgan segmenti ekanini koʻrsatdi.

Shu maʼnoda, Oʻzbekiston Prezidenti va Yaponiya parlamenti Maslahatchilar palatasi

QADIMDAN SHAKLLANGAN
MAʼNAViy MUSHTARAKLIK

Oʻzbek va turkman xalqlarini azaliy umumiy makon, savdo yoʻllari, urf-odatlar va qardoshlik aloqalari bogʻlab kelgan. Amudaryo havzasi, Xorazm vohasi, Marv va Buxoro kabi hududlar ikki xalq oʻrtasidagi iqtisodiy hamda madaniy muloqotning muhim markazlari boʻlib xizmat qilgan. Soʻnggi yillarda siyosiy iroda, iqtisodiy manfaatlar uygʻunligi va umumiy mintaqaviy maqsadlar ikki davlat munosabatlarini yanada chuqurlashtirish uchun mustahkam zamin yaratdi. Oʻzbekiston va Turkmaniston oʻrtasidagi siyosiy muloqot sifat jihatdan yangi bosqichga koʻtarildi.

Fikr

Mintaqaviy xavfsizlikni taʼminlash va barqaror taraqqiyot masalalarida Oʻzbekiston va Turkmanistonning yondashuvlari uygʻun ekani yaqqol namoyon boʻlmoqda. Oʻzbekiston Turkmanistonning xalqaro huquq tomonidan eʼtirof etilgan doimiy betaraflik maqomini izchil qoʻllab-quvvatlab kelayotgan boʻlsa, oʻz navbatida, Turkmaniston ham Oʻzbekistonning Markaziy Osiyoda yaxshi qoʻshnchilik, ochiqlik va konstruktiv hamkorlikka asoslangan tashqi siyosatini yuksak eʼtirof etadi.

Shu yil 12-dekabr kuni Turkmaniston doimiy betarafiligining 30 yilligi, Xalqaro betaraflik kuni hamda 2025-yil “Xalqaro tinchlik va ishonch yili” deb eʼlon qilinganiga bagʻishlab Ashxobod shahrida xalqaro forum oʻtkazildi. Unda Oʻzbekiston, Rossiya, Turkiya, Eron, Qozogʻiston, Qirgʻiziston, Tojikiston davlatlari yetakchilari, hukumatlar, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar rahbarlari ishtirok etdi.

Davlatimiz rahbari forumda soʻzlagan nutqida Turkmanistonni doimiy betaraflik maqomining 30 yilligi bilan samimiy tabriklab, uning bu siyosati zamonaviy milliy oʻzligi va davlatchilik modelida asosiy oʻrin tutishini eʼtirof etdi. Bundan tashqari, mazkur betaraflik modelini tinchlikparvarlik, ishonch va diplomatik faoliyatni uygʻunlashtirgan noyob tajriba sifatida baholadi hamda Turkmanistonning betaraflik siyosati Markaziy Osiyoda barqarorlik va tinchlikning muhim omili ekanini taʼkidladi.

Yurtboshimiz jahon hamjamiyatining hozirgi murakkab geosiyosiy sharoitida Turkmanistonning 2025-yilni “Xalqaro tinchlik va ishonch yili” deb eʼlon qilish tashabbusi oʻta dolzarb ekanini qayd etgan holda, ushbu gʻoyani Oʻzbekiston toʻliq qoʻllab-quvvatlashini aytib oʻtdi.

Prezidentimiz nutqining muhim jihatlaridan biri preventiv diplomatiyani rivojlantirishga qaratilgan aniq tashabbuslar bilan bogʻliq. Xususan, Oʻzbekiston Qoʻshilmaslik harakatidagi boʻlajak raisligi davrida tinchlik va zoʻravnolikdan xoli madaniyatni ilgari surish, siyosiy muloqot orqali ishonchni mustahkamlashni ustuvor vazifa sifatida belgilashi eʼlon qilindi. Shuningdek, 2027-yilni “Preventiv diplomatiya yili” deb eʼlon qilish taklifi xalqaro munosabatlarda mojarolarni bartaraf etishga emas,

balki ularning oldini olishga qaratilgan tizimli yondashuvni ilgari surishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu tashabbus davlatlar oʻrtasida ishonchni mustahkamlash, ziddiyatlarni siyosiy va diplomatik vositalar orqali barvaqt hal etish amaliyotini institutsional darajaga koʻtarishga xizmat qiladi. Shu orqali xalqaro hamjamiyatda tinchlikparvarlik madaniyatini shakllantirish, zoʻravnolikka yoʻl qoʻymaslik tamoyillarini mustahkamlash hamda barqaror va inkluziv xavfsizlik tizimini yaratish yoʻlida muhim qadam tashlanadi.

Prezidentimiz oʻz nutqida tinchlik va ishonch gʻoyalari ilgari surishda gumanitar hamkorlikning ahamiyatiga alohida eʼtibor qaratdi. Shu nuqtayi nazardan, Toshkent shahrida “Madaniyatlar muloqoti” xalqaro gumanitar forumini oʻtkazish, shu bilan birga, “Yoshlar tinchlik va ishonch yoʻlida” mintaqaviy dasturini joriy etish takliflarini ilgari surdi.

Ayni paytda “Yoshlar tinchlik va ishonch yoʻlida” mintaqaviy dasturini joriy etish taklifi tinchlik gʻoyalariining uzoq muddatli va barqaror asosda qaror topishini taʼminlashga qaratilgan strategik qadam hisoblanadi. Mazkur dastur yoshlarni taʼlim, madaniyat, volontyorlik va jamoatchilik tashabbuslari orqali muloqot jarayonlarga faol jalb etib, ularda bagʻrikenglik, masʼuliyat va global fuqarolik tuygʻusini shakllantirishga xizmat qiladi.

Prezidentimiz nutqi zamonaviy xalqaro munosabatlarda tinchlik, ishonch va oʻzaro hurmat tamoyillarini ustuvor etishga qaratilgan mukammal siyosiy-diplomatik dastur sifatida namoyon boʻldi. Unda Turkmanistonning doimiy betaraflik siyosatiga berilgan yuksak eʼtirof, Oʻzbekistonning ochiq va konstruktiv tashqi siyosati, shuningdek, Markaziy Osiyoda barqarorlik va hamjihatlikni mustahkamlashga doir aniq va amaliy tashabbuslar uygʻun holda bayon etilgan. Bu nutq xalqaro hamjamiyatni ziddiyat va qarama-qarshiliklar emas, balki muloqot, ishonch va hamkorlik asosida harakat qilishga daʼvat etuvchi muhim siyosiy chaqirigʻ boʻlib, tinch va barqaror kelajakni taʼminlash yoʻlida umumiy saʼy-harakatlarni birlashtirishga xizmat qiladi.

Odiljon MAMATKARIMOV,
Oliy Majlis Senatining
Xalqaro munosabatlar,
tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy
investitsiyalar va turizm masalalari
qoʻmitasi raisi oʻrinbosari.



DUNYO

HAFTA ICHIDA

HIMOLAYDA YANGI GES QURILMOQDA

“CNN” xabariga ko‘ra, Tibetning chekka hududida dunyodagi eng ulkan gidroenergetika tizimi barpo etilmoqda. Qiymati 168 mlrd. dollarga baholanayotgan ushbu loyiha quvvati bo‘yicha dunyoda tengsiz bo‘lib, yiliga taxminan 300 mlrd. kilovatt-soat elektr energiya ishlab chiqarishi bashorat qilinmoqda.

Bu ko‘rsatkich hozirda dunyodagi eng yirik sanalgan Xitoyning “Uch dara” to‘g‘oni quvvatidan uch baravar ko‘pdir. Loyiha Himolay tog‘larining seysmik faol hududida – yer qatlamlari har yili bir necha millimetrga o‘sadigan nuqtada qurilmoqda.

Xitoy Tashqi ishlar vazirligi loyiha barcha xalqaro xavfsizlik va ekologik me‘yorlarga javob berishini, qo‘shni davlatlar bilan ma‘lumot almashishga tayyorligini bildirdi.

E‘TIBORDAN CHETDA QOLGAN INQIROZ

“Thomson Reuters Foundation” hisobotiga tayanib ommaviy axborot vositalarining xabar berishicha, Sudandagi gumanitar falokat 2025-yildagi dunyo e‘tiboridan chetda qolgan inqiroz deb topildi.

Hisobotda qayd etilishicha, taxminan 30 mln. sudanlik shoshilinch yordamga muhtoj. Ekspertlar mamlakatdagi gumanitar omborlar bo‘shab qolganini, yordam operatsiyalari to‘xtash arafasidaligini hamda ikkita yirik shahar esa allaqachon ocharchilik girdobida ekanini ta’kidlaydi.

Fondning 22 ta yetakchi xalqaro tashkilot o‘rtasida o‘tkazgan so‘rovida respondentlarning uchdan bir qismi Sudan mojarosini birinchi o‘ringa qo‘ygan.

Ikkinchi o‘rinda Ikkinchi jahon urushidan keyingi eng qonli to‘qnashuv o‘chog‘i hisoblangan Kongo Demokratik Respublikasi qayd etilgan. Shuningdek, Myanma, Afg‘oniston, Somali va Sahel mintaqasi ham bu ro‘yxatga kiritildi.

ARKTIKADA REKORD DARAJADAGI ISSIQLIK

AQSH Milliy okean va atmosfera boshqarmasi ma‘lumotiga tayanib, “The Guardian”da xabar berishlaricha, Arktikada bir yil davomida rekord darajadagi issiqlik kuzatildi.

Ya‘ni 2024-yil oktabrdan 2025-yil sentabrgacha bo‘lgan davrda Arktikaning barcha hududda harorat so‘nggi 125-yil ichidagi eng yuqori darajaga yetgan. Shu bilan birga, Arktikada oxirgi 10 yil tarixdagi eng issiq yillar bo‘ldi.

Tahlilchilarning fikricha, qazilma yoqilg‘ilarning yoqilishi tufayli Arktika global o‘rtacha ko‘rsatkichdan to‘rt baravar tez isib borayotir. Bu esa butun sayyora iqlimini tartibga solishda muhim rol o‘ynaydigan va Yer “muzlatkichi” hisoblangan Arktikaning tabiiy muvozanatini buzmoqda.

MARKAZIY OSIYODA INVESTITSİYALAR JADAL O‘SMOQDA

Markaziy Osiyo mintaqasiga kiritilgan investitsiya hajmi 2025-yilning birinchi yarmida 1,3 mlrd. dollarga yetdi.

Yevroosiyo taraqqiyot banki tomonidan o‘tkazilgan shaharda ma‘lum qilinishicha, bu 2023-yildagiga nisbatan 42 foiz va 2016-yilgi darajadan deyarli uch baravar ko‘p.

Hujjatda aytilishicha, barcha mintaqalararo investitsiyalarning sakson foizi qurilish, ishlab chiqarish va moliya sektoriga to‘g‘ri keladi. Bu mintaqaning tovarga asoslangan modeldan yanada diversifikatsiyalangan investitsiya tuzilmasiga bosqichma-bosqich o‘tishini aks ettiradi.

MDH doirasida to‘plangan o‘zaro investitsiyalar 41,6 mlrd. dollarga yetdi. Investitsiya oqimlari tobora ko‘proq Markaziy Osiyo mamlakatlarga, birinchi navbatda, O‘zbekiston va Qozog‘istonga yo‘naltirilmoqda.

– 48 mlrd. dollardan ortiq o‘zaro to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning to‘plangani rekord darajadagi ko‘rsatkichdir. Markaziy Osiyodagi o‘zaro investitsiyalar, ayniqsa, tez sur‘atlar bilan o‘sib bormoqda. So‘nggi besh yil ichida mintaqada o‘zaro investitsiyalarning o‘rtacha yillik o‘sish sur‘ati 24,4 foizni tashkil etdi, bu butun Yevroosiyo mintaqasiga nisbatan bir necha baravar yuqori, – dedi Yevroosiyo taraqqiyot banki bosh iqtisodchisi Yevgeniy Vinokurov.

Internet xabarlari asosida Sharofiddin TO‘LAGANOV (“Xalq so‘zi”) tayyorladi.

“MANGU QUYOSH” JILVASI

Яқинда Ўзбекистон халқ ёзувчиси Мухаммад Алининг “Мангу қуёш” тарихий романини ўқиб чиқдим. Мутолаа асносида ўзимни узок ўтмишга тушиб қолгандек сездим: Астробод, Хирот, Балх, Mashhad, Шом ва бошқа кўҳна кентлар, уларнинг иқлими ва халқлари урф-одатлари ҳақида чуқур тасаввурга эга бўлдим.


Mutolaa

Yaqinda O‘zbekiston xalq yozuvchisi Muhammad Alining “Mangu quyosh” tarixiy romanini o‘qib chiqdim. Mutolaa asnosida o‘zinni uzoq o‘tmishga tushib qolgandek sezdim: Astrobod, Hirot, Balx, Mashhad, Shom va boshqa ko‘hna kentlar, ularning iqlimi va xalqlari urf-odatlari haqida chuqur tasavvurga ega bo‘ldim.

Asarda Alisher Navoiy, Xondamir, Kamoliddin Behzod va boshqa buyuk shaxslarning obrazlari shu qadar haqqoniy yaratilganki, ularning o‘zaro ijodiy va ilmiy suhbatlari orqali she‘riyat, odamiylik dunyosiga g‘arq bo‘lasiz. Shu bilan birga, adib o‘z mahorati bilan ona tilimizning jozibasini, so‘zlarimiz latofatini ham ko‘rsata olgan.

“...Birdan tabiat junbushga keldi, momaqaldiroq ovozi olamni tutdi, har yoqdan qars-qurs, olatasir guldarak sadolari eshitildi. Enaga ilg‘adi: ulkan bir yashin minoralar ustidan uchib o‘tib, yerga yaraqlab yolg‘in tashladi! Chaqmoq bukilmas qilichini yerga urganida borliq yorisib ketdi!

...“Inga-a-a!”ovozi chaqmoqlar shovqinini bosib ketdi. “O‘gil, bekam, O‘gi-i-! Xudoyim o‘gil ato qildi-i-!” quvonchi ichiga sig‘may qichqirdi Munajjima momo. Onaizor Gulbegim chaqaloqqa bir qarashga o‘zida kuch topa oldi. Chaqaloq, yo‘q, onaning yonida falakdan tushgan farishta



Alisher Navoiy ilohiy tuyg‘u bilan umrbod yashab, hayotdan tanho o‘tgan. Adibning ijodiy topilmalari shu joyda ham yaqqol ko‘rinadi.

Muhammad Ali romanning dardli o‘rinlarini ko‘zda yosh bilan yozgani aniq. Jumladan, mazkur satrlar o‘quvchining ko‘zlarini ham namlantiradi. “...Hirotada Ixtiyoridin qal‘asida beshafqat, oqibatsiz badbaxtlar hech bir andishaga bormay, shunqorlar shunqorini, Amir Temur Ko‘ragoniy sulolasi osmonida porlab ko‘rinayotgan sultonlik avji yulduzi, kelajakda temuriylar saltanatini kamolga yetkazuvchi norasida Mo‘min Mirzoni qatl etdilar”. Albatta, muallif mazkur tarixiy fojialarni asoslantiruvchi hujjatlarga suyanib yozgan. Bu voqealarni kitobxon hasrat, alam bilan o‘qiydi. O‘n ikki yoshli, nihoyatda aqli va kelajagi porloq yosh yigitchaning fojiali o‘limi nafaqat saroy, balki butun Hirot ahlini larzaga keltirganini tasvirlab berishda yozuvchi butun mahoratini ishga solgan.

Ustoz adibimiz musibat kunlarida

sulton Husayn Boyqaro va shoir Alisher Navoiyning, ikki qadrdon do‘stning Mo‘min Mirzoning sag‘anasi boshiga kelib diydorlashganlari sahnasini nihoyatda ta’sirli aks ettiradi. Shoh shoir do‘stidan najot tilaganday o‘pkasi to‘lib, do‘sti bag‘riga otiladi. Alisher Navoiyning taskiniga e’tibor bering: “Biz yaratgan Allohning nomi bilan qasam ichganmiz, boshimizga ming turli balo tushsa hamki, hanuz so‘zimizda qattiq turdik, tururmiz. Temurxon debdularki: “Chin do‘st uldurki do‘stidan hech qachon ranjimaydur! Ranjisa ham, uzini qanib qiladur! Do‘stidan ajramoq jarohatdur, hech qachon bitmas jarohat!...” Asrlar oshsa-da, bugun ham insonlarga saboq bo‘ladigan o‘git, teran hayotiy falsafa.

Sulton Husayn va uning o‘g‘illari o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash, ahillikni bardavom qilish maqsadida Alisher Navoiy bir umr halovat bilmadi. Shoirning shoh o‘g‘illariga nisbatan alohida mehr bilan yondashib, xuddi o‘zining farzandlaridek suhbatlar olib borganida kitobxon go‘yo o‘sha diydorlashuvlarning ishtirokchisiga aylanib qolgandek bo‘ladi. Masalan, Mo‘min Mirzo fojiasidan keyinok, katta urushning oldini

Yozuvchi so‘zga boyligi, qalamining kuchi, tafakkurining kengligi bilan bizni ushbu voqealar ichiga olib kirolgani, ishortira olgani, shubhasiz, uning katta yutug‘i.

Muhammad Ali buyuk shoir Alisher Navoiyni Sulton Husayn Mirzoning hayajonli ovozi bilan quyoshga tenglashtirdi. Bu bejiz emas, albatta. Mavlono Rumiyy aytganidek, quyosh har lahzada jon baxsh etadi.

Shu ma’noda, tarixiy romanga “Mangu quyosh” nomining berilishi har jihatdan mos tushgan. Zero, mazkur asar ham ulug‘ ajdodimiz xotirasi va merosi kabi quyoshdek porlab, uning jilvasi qalbarni yoritishiga, nafaqat o‘zbek millatining, balki butun turkiy xalqlarning mulkiga aylanib qolishiga ishonamiz.

Muhammadsobir SODIQOV, texnika fanlari nomzodi.

AVTOMOBILLARGA EKOLOGIK STIKER BERISH TARTIBI QANDAY?

Poytaxtimizda joylashgan Ichki ishlar vazirligi tizimidagi “Fayzobod” transport vositalari diagnostika tekshiruv markazida hukumatimizning shu yil 28-noyabrdagi qaroriga muvofiq joriy etilishi belgilangan “Ekologik transport” tizimining jamoatchilik o‘rtasidagi targ‘ibotiga bag‘ishlangan tadbir o‘tkazildi.

Qaror va ijro

Keyingi paytda mamlakatimizda atrof-muhitni muhofaza qilish, atmosfera havosi ifloslanishining oldini olish borasida jiddiy chora-tadbirlar ko‘rila boshlandi. Natijada poytaxtimiz havosi biroz yaxshilangan bo‘lsa-da, hamon tibbiy jihatdan me‘yordagidek emas.

– Avvalo, kuz fasli o‘ta quruq keldi, ustiga-ustak sanoat korxonalari va transport vositalari tashlamalari mintaqaning ekologik zaif hududida joylashgan aholi punktlari, xususan, Toshkent shahri iqlimini buzaypti. Shu bois har yuz ming aholi hisobiga nafas yo‘llari bilan bog‘liq xastaliklar miqdori keskin oshib ketmoqda. Achinarlisi, bemorlarning asosiy qismi bolalardir, – deydi Davlat ekologik ekspertiza markazi mas‘ul xodimi Shahzoda Akramova. – Shu sababli “Ekologik transport” tizimini joriy etish to‘g‘risida hukumatimiz qarori qabul qilindi.

Mazkur tizim birinchi bosqichda 2025 – 2027-yillarda poytaxtimizda, ikkinchi bosqichda 2028 – 2030-yillarda Nukus shahri va viloyatlar markazlarida hamda uchinchi bosqichda 2031 – 2034-yillarda boshqa barcha hududlarda joriy etilishi belgilangan.

Avtomobillarga ekologik stiker berish transport egasining vakolatli organga ixtiyoriy elektron murojaati asosida to‘lovlaris amalga oshirilishi, transport vositalarini ro‘yxatga olish va qayta ro‘yxatga olish jarayonlarida esa ularni birinchi marta bepul diagnostika tekshiruvlari



asosida aniqlanadigan ekologik me‘yorlarga ko‘ra taqdim etilishi belgilangan.

Tadbirida so‘zga chiqqan mas‘ullarning aytishicha, ekologik stikerlar berish orqali avtomobillar “yashil”, “sariq” va “qizil” ranglar bilan belgilanadigan “toza”, “o‘rta” va “zararli” ekologik toifalarga ajratib boriladi. “O‘rta” yoki “zararli” ekologik stiker olgan avtotransport egasi ixtiyoriy ravishda bir yilda bir marta ortiqcha to‘lovsiz ekologik toifasini “toza” yoki “o‘rta” ekologik toifaga o‘zgartirishi, ana shu maqsadda ulovini diagnostik tekshiruvdan o‘tkazishi mumkin.

Qarorga ko‘ra, hududlardagi ekologik zonalar chegaralarini belgilash xalq deputatlari mahalliy Kengashlari tomonidan Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasi taklifiga asosan belgilanadi. Ekologik zonalar

Abdunabi ALIQULOV (“Xalq so‘zi”).

Sport kurashlari: VAKILLARIMIZ JAHON REYTINGI PESHQADAMI

Birlashgan kurash dunyosi (UWW) joriy yilning dekabr oyi uchun jahon reytingini e‘lon qildi. Mazkur jadvalda yunon-rum kurashi bo‘yicha O‘zbekiston terma jamoasining 3 nafar a‘zosi birinchi o‘rinda qayd etilgan.



Unga ko‘ra, yakunlanayotgan yilda turli musobaqalarda yuqori natijalar bilan qimmatli ochkolarni jamg‘argan Alisher G‘aniyev 60 kilogramm-gacha, Aytjan Xalmaxanov 63 kilogrammgacha va Abdullo Aliyev 72 kilogrammgacha vazn toifalarida reyting peshqadami sifatida keltirilgan.

Shuningdek, 2025-yilda Osiyo chempionati, “U20” yosh toifasidagi dunyo birinchiligi hamda kattalar o‘rtasidagi jahon chempionati kabi yirik musobaqalarda g‘oliblikni qo‘lga kiritgan A. Xalmaxanov UWW tomonidan yilning “Eng dominant kurashchisi” deb topildi.



“Formula-1”:

HAMYURTIMIZ MARAFONDA DEBYUT QILADI

O‘zbekistonlik poygachi Ismoil Ahmedxo‘jayev 2026-yilning 17-18-yanvar kunlari o‘tkaziladigan “24 soat Dubay” sutkalik marafonida “Rossa Racing” ekipajini boshqaradi.



Bu haqda “Rossa” brendi asoschisi va taniqli avtosportchi Roman Rusinov xabar bermoqda.

21 yoshli I. Ahmedxo‘jayev uchun bir kunlik marafon musobaqalaridagi debyut poyga bo‘ladi. Turnirga “Rossa LM GT” avtomobili qo‘yilishi rejalashtirilgan bo‘lib, mazkur sport mashinasi ilk bor shu yilning yanvar oyida “24 soat Dubay” poygasida taqdim qilingan va darhol yuqori tezlikni ko‘rsatib, kerakli ballarni jamg‘argan edi. Debyutdan so‘ng model avtosport hamjamiyatida katta qiziqish uyg‘otgan.

R. Rusinovning ta’kidlashicha, bu nafaqat I. Ahmedxo‘jayevning shaxsiy yutug‘i, balki mamlakatimiz avtosportini rivojlantirish va uni yoshlar orasida ommalashtirish yo‘lida muhim qadam hisoblanadi.

Futbol: O‘TKIR YUSUPOV “NAVBAHOR”GA QAYTDI

O‘zbekiston milliy terma jamoasi darvozaboni O‘tkir Yusupov “Fulad” (Eron) jamoasi bilan shartnomasini bekor qilib, faoliyatini “Navbahor”da davom ettiradigan bo‘ladi.

Tajribali darvozabon o‘z vaqtida “Mash‘al” (Muborak), “Nasaf” (Qarshi), “Neftchi” (Farg‘ona), “Qo‘qon-1912” kabi jamoalarda to‘p surgan. Shuningdek, 2018-yildan buyon O‘zbekiston milliy terma jamoasi darvozasini qo‘riqlab, “Jahon chempionati – 2026” yo‘llanmasini qo‘lga kiritishiga



o‘zining munosib hissasini qo‘shgan. Olingan xabarlarga ko‘ra, so‘nggi 4 oyda jarohatini davolash bilan band bo‘lgan O. Yusupov yangi yildan mashg‘ulotlarni boshlaydi.

Sunnatilla ISLOMOV (“Xalq so‘zi”) tayyorladi.

2026/2027 o‘quv yilidan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida ta’lim yo‘nalishi shaklida Davlat auditi oliy maktabi tashkil etiladi.

Xalq so‘zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G 1242.10 379 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taqboq. O‘set usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma’lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibxona 71-259-74-53;
e’lonlar 71-259-74-55.



Tahriyrga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va umalligga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun ohmanni rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahriyriyat kompyuter markazida terildi hamda operator M. Begmuratov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas’ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir A. Aliqulov.
Musahhif S. Islomov.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko‘chasi, 41. O‘ZA yakuni — 01.46 Topshirildi — 02.45

1 2 3 4 5 6